

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA BADIY MAKON VA VAQTNING MODERNISTIK TALQINI

Gulhayo MEYLIYEVA

magistrant

Osiyo xalqaro universiteti

Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya

Nazar Eshonqul hikoyalari insonning ruhiy evrilishlarini modern uslubda ifoda etish namunalidir. Ularda badiiy makon va vaqt talqini ham yangicha ko'rinish olib, voqeliklar qisqa vaqt va noma'lum, ramziy makonda ifoda etiladi. Inson ichki olamining o'ziga xos ko'rinishlari badiiy makon orqali ifoda etiladi. Maqolada ijodkorning badiiy makon va vaqt talqini subyektiv tarzida ifodalanishi tahlillar orqali yoritiladi.

Tayanch so'zlar: badiiy makon, vaqt, Nazar Eshonqul, subyektivlik, yopiq makon, ramz, kechinma.

МОДЕРНИСТСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОСТРАНСТВА И ВРЕМЕНИ В РАССКАЗАХ НАЗАРА ЭШОНКУЛА

Гулхаё МЕЙЛИЕВА

магистрант

Азиатский международный университет

Карши, Узбекистан

Аннотация

Рассказы Назара Эшонкула являются примерами выражения духовных трансформаций человека в модернистском стиле. В них интерпретация художественного пространства и времени приобретает новый облик: события описываются в кратких временных рамках и в неопределенном, символическом пространстве. Специфические проявления внутреннего мира человека передаются через художественное пространство. В статье на основе анализа освещается субъективная интерпретация художественного пространства и времени в творчестве писателя.

Ключевые слова: художественное пространство, время, Назар Эшонкул, субъективность, замкнутое пространство, символ, переживание.

Bugungi davr hikoyachiligida ijodkorlar eksperiment va yangilikka intilish sababli an'anaviy hikoya tuzilishidan chekinadi, yangi uslublar va ifoda vositalarini qo'llaydi. Bu esa modernizmga xos xususiyatlarni ifoda etadi. "Adabiy jarayondagi har qanday yangilanish, badiiy kashfiyotlar, yangicha badiiy-estetik voqea-hodisalar ilmiy tafakkurda u yoki bu tarzda aks-sado beradi, o'z ifodasini topadi. Badiiy tafakkurdagi evrilish-u yangilanishlar adabiyot ilmi oldiga yangi-yangi ilmiy g'oyalarning qo'yilishiga, yangi-yangi istilohlar va tushunchalarning

iste'molga kiritilishiga olib keldi va bu tabiiy jarayon" [4;48]. Modernizm adabiyotga yangi uslublar, mavzular va g'oyalar olib kiradi. Modernistik hikoyalarda qahramonning tashqi harakatlaridan ko'ra uning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, fikrlari va his-tuyg'ulari tasvirlanadi. "U hayotni yuzaki, aynan (naturalism) tasvirlashdan, etika va estetika (axloqiy va go'zallik) chegarasidan chiqib aks ettirishdan ko'ra voqea-hodisalarning falsafiy mohiyatini, ichki jarayonini tasvirlashni afzal bildi" [2;223]. Modernistik asarlarda iztirob ichidagi inson qiyofasini aks ettirish asosiy ahamiyat kasb etadi. Ularda jamiyatdagi shafqatsizlik, insoniy tubanliklar oshkora tasvirlanadi. Tushkunlikka tushgan shaxslarning xatti-harakatlari, o'y- kechinmalari modern uslubda aks ettiriladi.

Qahramonning ongida kechayotgan jarayonlar, xotiralar, tushlar va xayollar hikoyaning asosiy qismini ashkil etadi. Syujet noaniq bo'lishi mumkin, vaqt va makon subyektiv va fragmentlangan tarzda tasvirlanishi Nazar Eshonqul hikoyalarining o'ziga xosligini namoyon qiladi. Nazar Eshonqul hikoyalarida modernizmga xos bo'lgan psixologizm, subyektivlik, ramziylik va an'anaviy hikoya tuzilishidan chekinish kabi xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Makon va vaqt haqiqati badiiy asar mavjudligining obyektiv belgisidir. Modernistik asarlarda ushbu tushunchalar subyektivdir. Nazar Eshonqul ijodida modernistik konstruksiyalar faol qo'llanishi jihatidan, uning ijodida vaqt va makon subyektiv tarzda ifoda etiladi. Bunda makon nafaqat voqelik bo'lib o'tadigan joy, balki ramziy ahamiyatga ega tarzda qahramon ruhiyati hamda ijodkor dunyoqarashini o'zida aks ettiradi.

"Ijodda subyektivlikning oldingi o'ringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intuiativ bilishning yuqori qo'yilishi, inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayrica e'tibor berilishi, ijodkor shaxs ijodiy tahayyuli va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushunilishi, o'z o'y-hislarini hech qanday (ma'naviy, axloqiy, siyosiy va h.) cheklovlarsiz ifodalash huquqining e'tirof etilishi ham modernizmga xos xususiyatlardandir" [5;177]. Nazar Eshonqul hikoyalarida insonning ichki dunyosiga, ruhiy iztiroblariga va ong osti jarayonlariga e'tibor qaratadi. Bu esa inson psixologiyasini chuqurroq o'rganishga

va qahramonlarning xarakterini yanada murakkab va realistik tasvirlashga yordam beradi. Qahramonlar xakteri realistik tasvirlansa-da, makon tasvirida bu reallik ko'zga tashlanmaydi. Aksincha, vaqt va makon qahramon ruhiy holatiga bog'liq tarzda ramziy ma'noga ega bo'ishi mumkin. Nazar Eshonqul hikoyalarida vaqt va makonning modernistik talqini an'anaviy adabiyotdagi tasvirlardan sezilarli darajada farq qiladi. Uning asarlarida vaqt va makon qahramonlarining ichki dunyosi, ruhiy holati va kechinmalari bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlanadi.

M. Ro'ziyeva, N.Azimova bu mavzuga oid tahlillarda zamon va makonni ekzestinsial xususiyat sifatida dunyo muallifining shaxsiy obrazini yaratishning ajralmas bo'lagi sifatida talqin etadilar. "Yozuvchining dunyoqarashi, tafakkurini shakllantirishda ulkan rol o'ynaydi va shu bilan individual muallifning dunyoni anglash, his qilish va boricha qiyofasini ko'ra bilish xususiyatlarini aniqlaydi. Shuningdek, badiiy asarning ichki qonuniyatlarini mustahkamlash janr ijodini chuqurlashtirishga , yozuvchi uslubini shakllantirishga hissa qo'shadi. Bir so'z bilan aytganda, zamon va makon kategoriyalarini o'rganish badiiy asarning matniga chuqurroq kirib borish bilan birga, uning qurilishidagi o'ziga xos xususiyatlarini ochishda ham yozuvchi dunyosi konsepsiyasini aniqlashga imkon beradi" [1;24]. Nazar Eshonqul hikoyalarida vaqt va makonning modernistik talqini qahramonlarning ichki dunyosini chuqurroq ochib berishga , ularning ruhiy holatini tasvirlashga va asarlarning falsafiy mazmunini boyitishga yordam beradi. Uning asarlarida vaqt va makon qahramonlarining kechinmalari bilan uyg'inlashib, o'quvchiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Nazar Eshonqul hikoyalarida vaqt va makon realistik adabiyotdagi singari aniq va izchil emas. Ularning fragmentlangan, subyektiv va o'zgaruvchanligi qahramonning shaxsiy tajribasi orqali dunyoning tartibsiz, bo'lak-bo'lak ko'rinishini tasvirlash orqali namoyon bo'ladi. Bu usul modernizm va postmodernism adabiyotida keng qo'llaniladi va o'quvchiga qahramonning ichki dunyosiga chuqurroq kirishga imkon beradi.

Yozuvchining "Og'riq lazzati" hikoyasida asosiy e'tibor qahramonning ichki iztiroblariga, o'zini anglash jarayoniga qaratilgan. Hikoyada makon jamiyatning

tanqidiy tasvirini yaratish uchun ishlatiladi. Modernizm asarlarida an'anaviy syujet chizig'i buziladi, voqealar tartibsiz, chalkash tarzda berilishi mumkin. "Og'riq lazzati"da ham syujet an'anaviy emas, hikoya qahramonning xotiralari, fikrlari, kechinmalari asosida qurilgan. Hikoyada voqelik subyektiv tarzda tasvirlanib, qahramonning ihki dunyosi orqali, uning his-tuyg'ulari, kechinmalari orqali ifoda etiladi. Nazar Eshonqul hikoyalarida vaqt obyektiv o'lchov emas, balki qahramonning subyektiv kechinmalari orqali his etiladi. "Bu dunyo mavjudligining tabiiy shakllari vaqt va makondir. Holbuki, badiiy dunyo yoki badiiy asar olami hamisha u yoki bu darajada shartli: u voqelik obrazidir. Demak, adabiyotda zamon va makon ham shartli. Boshqa san'at turlari bilan solishtirganda, adabiyot vaqt va makon bilan erki shug'ullanadi. "Tasvirlarning... nomoddiyligi" adabiyotga bir zumda bir fazodan ikkinchisiga o'tish imkoniyatini beradi" [1;23].

Adabiy asarda subyektivlik qahramonning voqealarni qanday idrok etishi, his qilishi va talqin qilishini ifoda etadi. Yozuvchi voqealarni qahramonning nuqtai nazaridan tasvirlab, o'quvchiga uning ichki dunyosini ochib beradi. Subyektiv tasvirda faktlardan ko'ra hissiyotlar, shaxsiy fikrlar va taassurotlar ustunlik qiladi. Bir qahramon uchun bir lahzada o'tib ketgandek tuyulsa, boshqa voqea bir umrga cho'zilgandek bo'lishi mumkin. "Og'riq lazzati" hikoyasida ham vaqt shu tarzda ifoda etiladi. "Erta-yu kech" iborasi orqali mahkumlar uchun azob-uqubatlarning doimiy davom etishini va vaqtning ahamiyatsizligini ko'rsatadi. Vaqt azobga mahkumlar va tomoshabinlar uchun subyektiv ma'noga ega. Azobga mahkumlar uchun vaqt azob-uqubatlar bilan to'ldirilgan, tomoshabinlar uchun esa vaqt qiziqish va zerikish bilan o'tadi. Modernizm vaqt obyektiv emas, balki subyektiv, psixologik kategoriya sifatida tasvirlanadi. Parchada vaqtning tez o'tishi yoki sekinlashishi personajlarning psixologik holatiga bog'liq. Masalan, san'atkor uchun vaqt azob chekish paytida sekinlashadi, tomoshabinlar uchun esa zavq olish paytida tezlashishi psixologik vaqtga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. "Do'stim bilan shahar o'rtasidagi maydonga kirib borganimizda, ular qator tizilishib o'tirishardi. Tanlari yara-chaqadan gezargan, azbaroyi og'riq va azobdan deyarli shilini tushgan yelkalaridagi yaraga quyosh shu'lalari tushganda yaltirab ketar,

oyoqlarini oldinga cho‘zgancha turishga ham madorlari kelmay zabun bo‘lib o‘tirishardi. Tekin tomosha ko‘rishni istovchi erta-yu kech maydondanketmay ularning faryod va fig‘onga to‘la holatini zerikkuncha tomosha qilishar, hatto tunlari ham bu yerda xohlagancha tomoshabin topilar edi” [3;13]. Hikoyadagi “shahar”, “maydon” kabi joylar – yopiq makon bo‘lib, allegorik ma’noga ega. Modernizm uchun xos xususiyatlardan biri – an’anaviy makon tushunchalaridan voz kechish va uni ramzlar bilan to‘ldirishdir. Parchadagi shahar va mahkumlar to‘planadigan maydon ham yopiq makonga xos cheklanganlik va shafqatsizlik kabi xususiyatlarga ega. U nafaqat voqealar sodir bo‘layotgan geografik joy, balki jamiyatning ma’naviy inqirozini, axloqiy yo‘qotishlarni aks ettiruvchi makon sifatida namoyon bo‘ladi. Shahar va maydon – bu insoniylik qadriyatlari oyoqosti qilingan, shafqatsizlik va zo‘ravonlik hukm surayotgan makon. Hikoyada ramziy makon tasvirlari ham mavjud. Xususan, mahkumning yuragi – ijodkorning san’ati va qalbi ramzi, olomonning zavqi esa jamiyatning qadriyatlarini oyoqosti qiluvchi va shafqatsiz olomon tasviri orqali yozuvchi distopik makon – insoniylikdan mahrum shafqatsizligi ramzi sifatida keltiriladi. Maydon azob-uqubatlarning joyi bo‘lib, vaqt esa bu azob-uqubatlarning daomiyligini ta’minlaydi. Makon va vaqt ramziy ma’noga ega. Maydon jamiyatning axloqiy tanazzulini, vaqt esa bu tanazzulning davomiyligini ifodalaydi.

Shuningdek, hikoyada modernizmga xos xususiyatlardan bo‘lgan absurd elementlari ham uchraydi. Jumladan, asar yakunida “to‘rtinchi mahbus” simvoli ostida shakllantirilgan ijodkor obrazining yuragini sug‘urib ko‘rsatishi va olomonning bundan zavqlanishi – absurd vaziyatdir. Odatda, inson azobi va o‘limi qayg‘uli voqea hisoblanadi, lekin bu yerda u tomoshaga aylantirilgan. Ijodkor o‘z san’atini yaratish uchun azob chekishga majbur, olomon esa bu azobdan zavq oladi. Bu munosabatda mantiq yo‘q, chunki olomon ijodkorga rahmdil bo‘lish o‘rniga, undan ko‘proq azob talab qiladi. San’at asari qanchalik azob evaziga yaratilsa, shunchalik qadrlanishi – bu ham absurd g‘oya. Olomonning azobdan zavq olishi insonparvarlik tamoyillariga zid. Bu vaziyatda inson qadri yo‘qoladi va azob tomoshaga aylanadi. Yozuvchi asarni absurd asosiga qurgan deya olmaymiz.

Negaki, ijodkor jamiyatdagi gumanizmning yo‘qolganini tasvirlaydi. Jamiyatni tanqid qiladi, inson tabiatidagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi. Absurd adabiyotida esa ko‘pincha mantiq va ma’no yo‘qoladi, voqealar tasodifiy bo‘ladi.

Ma’lumki, modernistik hikoyalarda vaqt aniq tasvirda ifoda etilmaydi. Qahramon o‘tmishga murojaat qiladi, bolalik xotiralarini eslaydi va o‘tmishdagi voqealar uning hozirgi hayotiga ta’sir qiladi. Nazar Eshonqulning “Ajr” hikoyasida ham aynan o‘tmish xotiraları qiynog‘i bosh qahramonni tark etmaydi. Hikoyada aniq zamon va makon tasviri keltirilmaydi. Asarda voqealar tartibsiz, bo‘lak-bo‘lak holda tasvirlanishi orqali fragmentlangan vaqt va makon ifoda etiladi. Asarda vaqt tushunchasi ham ma’lum bir chiziqli emas, balki o‘tmish, hozirgi va kelajak o‘zaro aralashib ketgan. Hikoyadagi makon tasviri ham joylar bog‘lanmaganligi va “yo‘l”, “g‘or”, “sahro” kabi makonlar tasviri ramziy ahamiyat kasb etishiga ko‘ra makon talqiniga oid noan’anaviy yondashuvni namoyon etadi.

Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy makon qahramonning psixologik holatini aks ettiradi. Masalan, qahramonning xonasi uning yolg‘izligini, tashvishini yoki umidsizlikka tushganini ko‘rsatishi mumkin. “Oq alanga” hikoyasida ayni shu xususiyatlar mavjud. “Sen xuddi hilpirab turgan oq alangaga o‘xshaysan. ...Oradan to‘rt yil o‘tsa ham sen biron soniya ko‘z oldimdan ketmading. Har lahza, har daqiqa ko‘z o‘ngimda oq alangani ko‘rib turdim... Alanga hamon mening sovuq xonamni cho‘g‘day isitib turibdi... Men bu alangani o‘chirib tashlashga ojizman... Yigit ko‘p yillardan beri shu xonada yashar, xona ulkan atirgulning hovuchiga o‘xshardi. Xonada yigit gulning shirasiga qo‘ngan kichkina asalari kabi bo‘lib ko‘rinardi. Yigitga o‘zining xonasi juda yoqardi...” [3;78] Modernizmدا tashqi makondan ko‘ra ichki makon, qahramonning ruhiy olami muhimroq hisoblanadi. Parchada ham asosiy e’tibor yigit yashayotgan xonaga qaratilgan. Xona – bu yigitning ichki dunyosining, xotiralarining, his-tuyg‘ularining ramzi sifatida psixologik makon vazifasini bajaradi. Dastlab xona yigit uchun qulay va yoqimli joy bo‘lgan bo‘lsa, endi u o‘zini ortqicha his qiladi. Dastlab yigit o‘tmish xotiraları bilan yashaydi, lekin keyinchalik u ulardan voz kechishga tayyorlanadi. Bu vaqtning o‘zgarishini, yigitning hozirgi zamonga qaytayotganligini ko‘rsatadi.

Xonani alanga burkab olishi vaqtning yo‘qolishini , o‘tmish xotiralarining butunlay unutilishuni anglatadi. Modernizm da vaqt obyektiv emas, balki subyektiv, qahramonning ichki kechinmalariga bog‘liq. Parchada yigitning xotiralari vaqtning o‘tishini buzib ko‘rsatadi. To‘rt yil o‘tgan bo‘lsa ham , u “oq alanga” ni har lahza ko‘rib turgandek his qiladi. Vaqt uning uchun to‘xtab qolgandek, u o‘tmishda yashayotgandek. Yigit har doim “oq alanga”ni eslaydi, xat yozadi va ulardan gul yasab, derazadagi bo‘sh tuvaklarga solib qo‘yadi. Bu harakatlar takrorlanib turishi vaqtning doiraviyligini, yigitning o‘tmishdan qutula olmayotganligini ko‘rsatadi. Makonning ramziylik, statikligi va vaqtning subyektivligi, psixologikligi asarning modernistik ruhini kuchaytiradi. Hikoyada badiiy makon va vaqt qahramonning ichki dunyosidagi o‘zgarishlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Xona yigitning o‘tmish xotiralar bilan bog‘langan bo‘lsa. , uning yo‘qolishi yigitning o‘tmishdan voz kechib, yangi hayot boshlashga tayyor ekanligini ko‘rsatadi. Vaqtning o‘zgarishi ham qahramonning ruhiy evolutsiyasini aks ettiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, badiiy makon va vaqt haqiqati badiiy asar mavjudligining obyektiv belgisidir. Modernistik asarlarda ushbu tushunchalar subyektivdir. Nazar Eshonqul ijodida modernistik konstruksiyalar faol qo‘llanilishi jihatidan, uning ijodida vaqt va makon subyektiv tarzda ifoda etiladi. Bunda makon nafaqat voqelik bo‘lib o‘tadigan joy, balki ramziy ahamiyatga ega tarzda qahramon ruhiyati hamda ijodkor dunyoqarashini o‘zida aks ettiradi. Nazar Eshonqul hikoyalarida insonning ichki dunyosiga, ruhiy iztiroblariga va ong osti jarayonlariga e‘tibor qaratadi. Bu esa inson psixologiyasini chuqurroq o‘rganishga va qahramonlarning xarakterini yanada murakkab va realistik tasvirlashga yordam beradi. Qahramonlar xakteri realistik tasvirlansa-da, tasvirda bu reallik ko‘zga tashlanmaydi. Aksincha, vaqt va makon qahramon ruhiy holatiga bog‘liq tarzda ramziy ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Nazar Eshonqul hikoyalarida vaqt va makonning modernistik talqini an’anaviy adabiyotdagi tasvirlardan sezilarli darajada farq qiladi. Uning asarlarida vaqt va makon qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy holati va kechinmalari bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Aytish lozimki, Nazar Eshonqul hikoyalarining badiiy yuki va g‘oyasi

hamda inson kechinmalarini aks ettirishdagi modernistik uslub jahon adabiyoti namunalari chashmalaridan suv ichib, boyib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ro‘ziyeva M., Azimova N. Badiiy adabiyotda makon va zamon tushunchasi va ularning kelib chiqishi. Maqola. International journal of scientific researchers //Volume 4, Issue 1, 2024.
2. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2002.
3. Eshonqul, Nazar. Maymun yetaklagan odam. Hikoyalar to‘plami. – Toshkent: Aim.uz, 2008. www.ziyouz.com
4. Qahramonov Q. Adabiy jarayon va estetik talqin. Maqolalar to‘plami. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar. – Toshkent: 2014.
5. Qur‘onov D. Sheraliyeva M., Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.